



DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI FAOLIYATIDA O'TKAZILADIGAN SAYYOR SOLIQ TEKSHIRUVLARINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Fayzulloyev Mirsaid Shuhratovich

TDIU tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7092393>

Annotatsiya: Mazkur maqolada, sayyor soliq tekshiruv qisqartish maqsadida soliq nazoratida soliq organlarini faoliyatini takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq sayyor soliq tekshiruv, soliq ma'murchiligi, moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditori, auditning xalqaro standartlari, normativ tahlil, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, har bir faoliyat turi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, sohaning uslubiy ta'minoti yaratib berildi. Jumladan, soliq nazorati faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda audit bo'yicha yetarli uslubiy ta'minot mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur soha bo'yicha qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari sohaning uslubiy ta'minoti yaratilganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilinib, soliq tekshiruvlarining yangi shakllari belgilandi.

Jumladan, Kodeksning 139-moddasida sayyor soliq tekshiruvlariga doir me'yorlar kiritilib, sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Soliq kodeksining mazkur moddasi va boshqa moddalarida belgilangan normalar asosida Davlat soliq qo'mitasining 2020 yil 18 maydagi 2020-16-son "Sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilinib, Adliya vazirligida shu yil 18 iyunda 3247-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Mazkur qarorga asosan, Davlat soliq qo'mitasining ilgari qabul qilingan:

Nizomning 2-bandiga asosan soliq organlari sayyor soliq tekshiruvi doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

soliq solish ob'ektlarini aniqlash;

xronometraj kuzatuvlarini o'tkazish;

nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo'llanilishini tekshirish;





solliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;
bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida solliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish;
savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish;
solliq to'lovchidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni solliq to'lovchi (solliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazishni talab qilish.

Eng muhim masala solliq organlarining barcha darajadagi rahbar va mas'ul xodimlari tomonidan sayyor solliq tekshiruvdan oldin, tekshiruv jarayonida va tekshirishdan keyingi turli suiiste'molchiliklar va korrupsiyani keltirib chiqaradigan holatlarga yo'l qo'yilmasligi ustidan nazorat o'rnatilishi kerak.

Sababi, agarda sayyor solliq tekshiruviga doir birorta korrupsiya holatlariga yo'l qo'yiladigan bo'lsa, xodimning javobgarligi muqarrar ravishda ta'minlanishi bilan birga, kelgusida solliq organlaridan tekshiruv vakolati ham olib qo'yilishiga olib keladi.

Sayyor solliq tekshiruv quyidagi asoslarning biri mavjud bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

"Tahlika-tahlil" dasturiy mahsuloti natijasiga ko'ra aniqlangan, yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub bo'lmagan solliq to'lovchilar (solliq agentlari) faoliyatidagi solliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda;

jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan solliq to'lovchilar faoliyatida solliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risida murojaatlar kelib tushganda, bundan anonim murojaatlar mustasno;

ommaviy axborot vositalarida solliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganda;

kameral solliq tekshiruvi jarayonida aniqlangan tafovut va xatolarni solliq organi joylashgan joydan tashqarida o'rganish zarurati yuzaga kelganda.

Mazkur badda belgilangan asoslar mavjud bo'lgan hollarda solliq organining mansabdor shaxslari tomonidan sayyor solliq tekshiruvi o'tkaziladigan tadbirkorlik sub'ekti va unga qarashli ob'ektlar o'rganiladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari anonim emasligi, savdo yoki xizmat ko'rsatish shoxobchasi yoxud ishlab chiqarish ob'ektining mavjudligi sub'ekt faoliyatiga aralashmasdan tahlil qilinadi.





Yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik sub'ektida mavjud huquqbuzarlik bo'yicha murojaatlari tekshirish tashkil qilinishidan qat'iy nazar "Tahlika-tahlil" dasturiy mahsulotiga kiritish hamda sub'ekt faoliyatini baholashda foydalanish uchun qo'mitaning Havfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash boshqarmasiga taqdim etiladi.

Sayyor soliq tekshiruvini kelishish to'g'risidagi buyurtmasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

tekshiruv o'tkazuvchi DSXO nomi;

tekshiruv o'tkaziladigan tadbirkorlik sub'ektining nomi (filiali yoki shoxobchasi), soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, manzili;

tekshiruv o'tkazish uchun asos;

talablari buzilishi mumkin bo'lgan normativ-huquqiy hujjat to'g'risida ma'lumot; tekshiruv o'tkazish muddati;

tekshiruv predmeti;

tekshiriladigan faoliyat davri.

Sayyor soliq tekshiruvi o'tkazish uchun soliq organining ikki yoki undan ortiq mansabdor shaxslari jalb etilgan taqdirda, buyruqda bir nafar xodim tekshirishda vazifalarni taqsimlash bo'yicha guruh rahbari etib belgilanadi.

Sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga "Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi"ning to'ldirilgan shakli (qog'oz shakli to'ldirilganda – elektron shakli to'ldirilmaganligi sababi) yoki kitob taqdim etilmaganda – uning taqdim etilmaganligi to'g'risida tekshiruvchi tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazuvchi mansabdor shaxs "Tekshiruvlarni ro'yxatga olish kitobi"ni to'ldirishdan bosh tortgan taqdirda, soliq to'lovchi o'zining sayyor soliq tekshiruvidan o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikka haqli.

O'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tamomlangandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Xulosa va takliflar.

Shu kabi holatlarni oldini olishda Fransiyada fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasida, shuningdek tadbirkorlarning bir-biri bilan naqd pul shaklidagi 1000 YeVRodan oshadigan to'lovlarga cheklov joriy etilgan. Avstriyada esa qurilish sohasida oylik maoshlarni naqd pul shaklida to'lanishi (uzrli sabablar bundan mustasno) ta'qiqlangan.

O'zbekiston sharoitida Fransiya va Avstriya kabi davlatlarda qurilish sohasida naqd pul muomalasini cheklash yuzasidan joriy qilingan amaliyotni O'zbekiston sharoitida ham joriy qilish. Qurilish sohasida (ko'p qavatli uy-joy) xaridorlardan





(fuqarolar) qurilish mollarini qabul qilib olish bilan (investitsiyaviy shartnoma) bog'liq holatni cheklash. Ya'ni ushbu holat kuzatilgan taqdirda tovarlarni ayirboshlash (barter) sifatida tan olish mexanizmini joriy qilish.

Adabiyotlar:

1. Yefremova T.A. Razvitie nalogovogo administrirovaniya v Rossii: teoriya, metodologiya, praktika. Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. 2017MGU. Saransk. str. 366.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

